

**Ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy-ma'naviy muhit holati bo'yicha videoselektor yig'ilishida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi  
Markazi direktori M.M.Xolmuxamedovning**

**KIRISH SO'ZI**

**Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish qatnashchilari!**

Bugungi yig'ilishimizda O'zbekiston Musulmonlar idorasi raisi o'rinnbosari

O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi Respublika boshqaruvi raisi o'rinnbosari

O'zbekiston	xotin-qizlar	qo'mitasi	raisi	o'rinnbosari
-------------	--------------	-----------	-------	--------------

O'zbekiston	"Kamolot"	yoshlar	ijtimoiy	harakati	mas'ul	xodimi
-------------	-----------	---------	----------	----------	--------	--------

hamda mazkur tashkilotlarning hududiy bo'linma rahbarlari, shuningdek, oliy ta'lif muassasalari prorektorlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalar boshliqlari, ta'lif muassasalari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Kun tartibida **ta'lif muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhit holatiga baho berishimiz va kelgusida amalga oshiriladigan vazifalarni aniq belgilab olishimiz lozim.**

**Shuningdek, kun tartibida faoliyatimizga aloqador boshqa masalalarni ham ko'rib chiqamiz.**

Albatta, masalaning mohiyati, dolzarbligidan kelib chiqib, bugun barcha mutasaddilar ishtirokida videoselektor o'tkazishga qaror qildik.

Albatta, har doim yoshlar ta'lif-tarbiyasi hukumatimizning alohida diqqat e'tiborida bo'lib kelgan.

Lekin yaqin kunlarda Muhtaram Prezidentimizning yoshlar tarbiyasi borasidagi fikr va ko'rsatmalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, **bu ishga bo'lgan munosabatimizni, yondashuvimizni, umuman, ishlash tartibini tubdan o'zgartirishimiz, qayta ko'rib chiqishimiz kerakligi ayon bo'ladi.**

Yaqinda Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining cammitida Muhtaram Yurtboshimiz yoshlar ma'naviyati, tarbiyasi borasida qilinishi shart bo'lgan vazifalarni aniq ko'rsatib berdilar.

Ayniqsa, diniy ekstremistik guruylar o'z g'oyalarini yoshlar orasida targ'ib qilish va ularni manqurtlarga aylantirishda zamonaviy **axborot texnologiyalaridan keng foydalanayotganini tashvish bilan qayd etdilar.**

O'z navbatida, **JAHOLATGA QARShI MA'RIFAT BILAN KURAShISh**, zo'ravonlik va yovuzlikka qarshi ezgulik mafkurasini targ'ib etish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

**Bu jarayonda asosiy e'tiborni yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga qaratish lozimligi uqtirildi.**

Yoshlarning bilim va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda bizni doimo ezgulik, tinchlik va bag'rikenglikka chorlaydigan **muqaddas islam dinining sof, asl qadriyatlariga tayanish zarurligiga urg'u berildi.**

Davlatimiz rahbarining yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati xususida Xalqaro minbarda bildirgan fikrlari, birinchi navbatda, Siz bilan Bizning – ta'lim-tarbiya mutasaddilarining oldiga jiddiy vazifalarni qo'ydi.

**Bugun barcha sohalarda islohot bo'lyapti. Xuddi shunday yoshlar tarbiyasi sohasiga ham islohot, jiddiy tahrir kerak.**

**Aslida Ma'naviyat – ancha yuksak tushuncha.** Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu so'zga berilgan ta'rifni bilasizlar.

"Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"

Haqiqatdan ham, agar obrazli aytadigan bo'lsak, Ma'naviyat – inson kamolotining cho'qqisi. Ammo bu cho'qqiga ko'tarilish uchun oldin tepalik, qir, adir degan balandliklarga chiqish kerak bo'ladi.

Ya'ni, farzandlarimizni ma'naviyatli qilish uchun avval ularga tarbiya berish kerak.

**Oddiy odob-axloq qoidalarini, oddiy kun tartibini, yuz-qo'lini yuvishni, salomlashishni, muomila qilishni, toza-ozoda yurish, vaqtida uyqudan turib, vaqtida dars tayyorlashni, ovqatlanish, kiyinish, kitob o'qish madaniyatini o'rgatishimiz kerak.**

Kerak bo'lsa, suvni iflos qilish, jamoat joyda tuflash, nafaqat insonga, umuman birorta jonzotga ozor berish mumkin emasligini oddiy, sodda tilda, hayotiy misollar bilan tushintirish kerak.

**Bugun ana shu oddiy tarbiya bilan kim shug'ullanyapti?** "Ma'naviyat soat"larida qaysi mavzular o'tilyapti? O'qituvchi-pedagoglarimizning o'zi bu masalani qay darajada idrok eta oladi yoki shaxsiy ibrat ko'rsata oladi?

Afsuski, bu savolarga javob yo'q.

Afsuski, shu kungacha ma'naviyat sohasida **siyqasi chiqqan, o'zini oqlamagan, samara bermagan va bundan keyin ham bermaydigan eskirgan ish uslublari** bilan yuribmiz.

**Bugun farzandlarimizni tarbiyalashda ularning nima bilan "nafas olayotganini", ularning ongu shuuriga nima ko'proq ta'sir o'tkazayotgani, zararlayotganini inobatga olmayapmiz.**

Ularning xarakterida nima o'zgarish bo'lyapti, zo'ravonlik, shafqatsizlik, yovuzlik, axloqsizlik qayerdan paydo bo'layotganini bilmaymiz.

Borovskiy nomidagi tibbiyot kollejida nima fojea bo'lganidan yaxshi xabardor bo'lsangiz kerak.

**Umuman, kollejlarda darsga kelmayotgan, qarovsiz, nazoratsiz qolayotgan, xatti-harakati bejo, yo'q joydan janjal, muammo chiqarib, hammani o'zining kasofatiga qoldiradigan toifadagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash tizimi, tartibi bormi, yo'qmi?**

## **Bor bo'lsa, kim shuni amaliyotga tatbiq etyapti?**

Bugun ana shu savollarga ta'lif tarbiyaga mas'ul barcha mutasaddilar, **ayniqsa, ma'naviyat sohasining egalarida aniq javob bo'lishi kerak.**

Muhtaram Yurtboshimiz bejiz aytmayaptilar, yoshlarimizning turli yot g'oyalar, diniy ekstremistik, terroristik guruuhlar ta'siriga tushib qolishida Internet, zamonaviy axborot texnologiyalari asosiy vosita bo'lyapti.

Demak, biz internetdan kirib kelayotgan ana shu tahdidlarga qarshi qanday kurashish kerakligini aniqlashimiz kerak.

Endi bularning hammasini tahlil qilib, diagnoz qo'yib, shunga qarshi samarali kurashadigan tizim yaratish kerak bo'ladi.

Umuman, bu borada oldimizda juda katta ko'lamdag'i ishlar turibdi.

Eng jiddiy muammo bu Ijtimoiy hamkorlikning yetarli samara bermayotgani.

**"Oila, mahalla, ta'lif muassasasi"** hamkorligi degan mexanizm bor edi. Lekin amalda kutilgan samarani bermadi.

Bugun shu tizimni yanada kuchaytirish uchun yangilab, **"Oila, mahalla, ta'lif muassasasi, ichki ishlar, xotin-qizlar, Kamolot YoH"** shaklida qamrovi va faoliyat yo'nalishlarini yanada kengaytirdik.

**Agar shu OLTILIK bir kuch, yagona musht bo'lsa, jamoaviy javobgarlikni his etib, bir maqsad yo'lida birlashsa, o'zining vazifasini vijdonan, vatanparvarlik bilan bajarsa, nazarimda, yaxshi samara beradi.**

Chunki yoshlar tarbiyasida har bir mutasaddi tashkilotning o'z vazifasi, mas'uliyati va javobgarligi aniq belgilangan.

**Tasavvur qiling, shu oltita tashkilotdan 6 nafar azmi shijoati qat'iy rahbar o'sha jinoyat qilgan, muntazam darsga kelmayotgan, erta turmushga chiqayotgan yoki diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushgan, notinch, noqobil oilaga, xonadonga birga kirsa, nima natija bo'ladi?**

Kirgandayam, shu xonadonning muammosini aniqlab, ota-onaning, o'quvchining dardini samimiylilik bilan tinglab, imkon bo'lsa, shu muammoni hal etib, moddiy, ma'naviy, tarbiyaviy patronaj o'tkazsa, to'g'ri yo'lga boshlasa, albatta besamar ketmaydi.

Agar shundayam, o'z bilganidan qolmasa, keyin, hukumatimiz bergen vakolat doirasida ta'sir choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

**Lekin bu ishning sharti shuki, jarayondan otilikning hech biri chekkada qolmasligi shart.**

**Chunki bu vazifalar ijrosiga mas'uliyatsizlik bilan yondashishga hech kimning haqqi yo'q.**

Umuman, bundan buyon bu masalada munosabatni tubdan o'zgartirib, Muhtaram Prezidentimizning oldimizga qo'yayotgan muhim vazifalarni bajarishga jiddiy kirishishimiz talab etiladi.

Ayniqsa, o'qituvchining bilim saviyasini, dars, to'garak mashg'ulotlarini sifatli o'tishini qat'iy nazorat qilish shart.

**Direktor, o'quv, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarlari, bo'lim va kafedra boshliqlari, ChYoT, Jismoniy tarbiya, ARM rahbarlari, psiloxolog, "Kamolot" yetakchisi, Xotin-qizlar qo'mitasi, o'qituvchilar o'z faoliyatiga tanqidiy baho berib, o'zgarmasa, biz bunday rahbar, pedagoglar bilan ishlamaymiz.**

Ayni paytda o'qituvchilarning yozgi ta'til davrida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishi bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqanmiz.

Bundan buyon o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, malakasini oshirishi, toifa olishini nazorat qiladigan tizimni joriy etamiz.

Yangi o'quv yilidan boshlab dars mashg'ulotlari tahliliga jamoatchilikni, ota-onalarni jalb etish orqali o'qituvchilar faoliyatiga baho beramiz.

**Xabarlaringiz bor, yaqinda yangi bir tashabbus qildik.**

**"Jaholatga qarshi ma'rifat bilan"** shiori ostida yoshtar o'rtasida **oliyanoblik fazilatlarini** keng targ'ib etish bo'yicha barchaga ko'rsatma berildi.

**Gap o'quvchining ruhiyatidagi yovuzlikni quvib chiqarib, o'rniga yaxshilik, ezgulik urug'ini qadash haqida ketyapti.**

Agar o'quvchilar ommaviy ravishda oliyanoblik fazilatlari yoritilgan kitoblarni qidirsa, kutubxonalarini band qilsa, har bir o'quvchi "**Oliyanob inson fazilatlari**" mavzusida insho yozsa, eng yaxshi insoniy fazilatlar haqida babs munozaralar, debatlar bo'lsa, va bularning barchasi yoshtar aksiyasi sifatida muntazam amalga oshirilsa, **samara beradimi yo'qmi?**

**Albatta, natija bo'ladi. Ammo buning uchun ana shu ishlarga mutasaddi bo'lgan Siz bilan Biz ishlashimiz, Muhtaram Yurtboshimizning ta'biri bilan aytganda "o'zimizni qiyashimiz" kerak.**

Bugungi globallashuv jarayonida bolalarni to'g'ri yo'lga boshlash, kitob o'qitish ham oson kechmaydi.

**Shuning uchun pedagog sifatida kerak bo'lsa, ularni kitob o'qishga majbur qilishimiz lozim.**

**Shuningdek, bugungi yig'ilishdan tegishli xulosa chiqargan yuqorida ta'kidlangan KUCHLI OLTLIK quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratishi lozim.**

**Birinchidan**, o'quvchi-yoshtar tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik va jinoyatlar to'g'risida ma'lumotni tanqidiy o'rganib, keskin muhokamalar etish va tegishli mas'ul xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rish;

**Ikkinchidan**, o'quvchi-yoshtar va ularning ota-onalariga huquqbazarlik va jinoyat uchun jazo muqarrarligini, qanday og'ir ta'sir choralar qo'llanishini tushuntirish;

- **Uchinchidan**, qat'iy reja-grafik, oldindan belgilangan ro'yxat asosida diniy ekstremistik oqim a'zolari bo'lgan oilalarda tarbiyalanayotganlar, jinoyat va huquqbazarlikka moyil o'quvchi va "lider"lar, darsga kelmayotgan, muntazam ko'ngil ochar maskanlarga boruvchilar, noqonuniy diniy marosimlarda, masjidlarda

qatnayotgan umuman, ijtimoiy xavfli guruvgi kiruvchi yoshlar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazish amaliyatini joriy etish;

- **To'rtinchidan**, moddiy jihatdan qiyalgan, yotoqxonada joy bilan ta'minlanmagan, muassasaning ichki qoidalariga riosa qilmasdan, norozi kayfiyatda yurgan o'quvchilarni aniqlab, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish;

- **Beshinchidan**, xususiy uylarda ijarada yashayotgan o'quvchi-yoshlarning yashash sharoitlarini o'rganish, har biriga tajribali o'qituvchi-xodimlarni mas'ul etib tayinlash;

- Va nihoyat, o'quvchilarning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish, ularning har bir nojо'ya harakatiga albatta munosabat bildirish, kerak bo'lsa, jazolash, uyaltirish, majburlash yo'li bilan to'g'ri yo'l ko'rsatish kerak bo'ladi.

- Asosiy vazifamiz, yoshlарimizning savodli, hushyor, hozirgi davr voqealari, ijtimoiy, siyosiy islohotlardan xabardor, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, kitob o'qish, bilim, kasb-hunar o'rganishdan qochmaydigan, bularning barchasini ongli va ixtiyoriy ravishda bajaradigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat bo'ladi.